

BOSHLANG'ICH SINIF DARSLARDA NOAN'ANAVIY METODLARNING SAMARADORLIGI

Sultanova Gulshan Parpiyevna

*Namangan viloyati Chortoq tumani MMTBga qarashli 36-
maktabning. 1- toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8381140>

Annotation: *this article will talk about the use of teaching methods in primary education, as well as the effectiveness of these methods in the course process.*

Keywords: *method, innovative methods, new pedagogical technologies, computer literacy, the use of ICT, interactive games.*

Аннотация: *В этой статье рассматривается использование методов обучения в начальном образовании, а также эффективность этих методов в процессе обучения.*

Ключевые слова: *метод, инновационные методы, новые педагогические технологии, компьютерная грамотность, использование компьютерных технологий, интерактивные игры.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda o'qitish metodlaridan foydalanish hamda bu metodlarning dars jarayonidagi samaradorligi xususida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *metod, innovatsion usullar, yangi pedagogik texnologiyalar, kompyuter savodxonligi, AKT dan foydalanish, interfaol o'yinlar.*

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 29-apreldagi farmoni bilan Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi va uni joriy yilda amalga oshirish uchun yo'l xaritasi tasdiqlandi. Yo'l xaritalari har yil uchun alohida qabul qilinadi. O'zbekistonning 2030 yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish ko'zda tutilgan.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamdagi o'zgarishlar, iqtisodiy va ijtimoiy muammolar, maktab tizimi, texnologiyalardan foydalanish jarayonlari bizni e'tiborimizni albatta tortadi. Yangi O'zbekiston poydevorini quruvchilari bo'lmish yosh avlodni tarbiyalashda ularga xalqaro toifadagi bilimlarni berish va jahon standartlariga mos ravishda adabiyotlardan foydalanish maqsadga muvofiq deb o'ylayman. Jamiyatda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ta'lim tizimida katta o'zgarishlarni, shu jumladan vazifalari, qarashlari, maqsadlari, tushunchalari, mazmuni, didaktikasi va o'quv jarayonlari uslublari, maktab jihozlari, ish va o'quv jarayonini tashkil etish, natijada ta'lim va tarbiya o'qituvchilar, ish vaqtini va ish odatlarini o'zgartirish, o'quv jarayonini nazorat qilish, o'quv natijalari va ishning boshqa natijalarini baholash yuzaga keladi. Ta'lim jarayonining muvaffaqiyati uning shakligagina emas, balki qo'llanilayotgan metodlar samaradorligiga ham bog'liqdir.

Mamlakatning ertangi kuni esa, dunyoqarashi keng maktab bolalari va zamonaviy, salohiyatli o'qituvchi-murabbiylarga ko'p jihatdan bog'liqdir. O'quv-tarbiya ishlari jarayonida o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, o'zgaruvchan vaziyatlarga o'rgatish, erkin raqobat asosida faoliyatni tashkil etish hamda ularning amaliy mashg'ulotlarda pedagogik texnologiyalar, axborot texnologiyalari ta'lim-tarbiya islohati, yuqori malakali kadrlar

tayyorlashga erishish mamlakatimiz taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir. Bugungi kunda zamonaviy dars samarali bo'lishi kerak unda: O'qituvchi bugun o'z oldiga qo'ygan maqsadlarni amalga oshira oladigan. O'qituvchi halollik va fidoiylik fazilatlarini o'zida mujassam etishi o'qituvchi o'quvchi ko'z o'ngida chinakam sobiq hayot ta'limini beruvchi ustoz sifatida namoyon bo'lishi zarur. Noan'anaviy ta'lim metodlari dars jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Bunday metodlarga asoslangan ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyati va o'quvchi faoliyati doirasi aniq belgilanadi, ta'limni tashkil etishning aniq texnologiyasi ko'rsatiladi. Bolaning ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang'ich sinflarda o'qituvchining mahorati, uni pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga mohirona tadbiiq eta olishi, ta'limning yangi-yangi yo'l va usullarini izlashi, pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir. Noan'anaviy metodlardan foydalanishni ta'lim jarayonida tadbiiq qilish hozirgi davr talablaridan biri hisoblanadi.

Noan'anaviy metod texnologiyasi-muayyan muddatga mo'ljallangan ta'lim jarayon markazida o'quvchi shaxsi bo'lib, o'qitishning zamonaviy shakli, faol o'qitish metodlari va zamonaviy didaktik vositalarning majmuini ta'lim-tarbiya ishidan ko'zlangan maqsad va kafolatlangan natijaga erishishga yo'naltirishdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarni keng va oson o'zlashtirish maqsadida pedagogik texnologiyalarning usul, vosita va shakllarini to'g'ri tanlab, ulardan foydalanish muhim sanaladi. O'qish darslarini tashkil etishda pedagogik texnologiyalarning ko'pgina metodlaridan foydalaniladi.

Bola hayotida bog'chadan so'ng maktabning dastlabki davrlari muhim o'rin tutadi. Shu bois boshlang'ich ta'lim davri ta'lim jarayonidagi eng mas'uliyatli davrdir. Bu paytda bolaning savodi chiqishi bilan birga, uning dunyoqarashi shakllanadi, tafakkur qilish malakasi rivojlanadi.

Bu davrda bolaning zehni o'stirishga qaratilgan har bir mashg'ulot bola aqlining tarkib topishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham bu davrda, avvalo, ta'lim jarayonini qiziqarli, ta'sirli qilib tashkil etishga, motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga e'tibor qaratish lozim. Chunki bu muddat bolaning o'yin faoliyatidan aqliy faoliyatga, ya'ni o'quv faoliyatiga o'tganligi bilan xarakterlanadi.

Didaktik o'yinlar boshlang'ich sinflarda ta'limning samarali borishiga o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini muvaffaqiyatli boshqarishga ham katta yordam beradi, ya'ni didaktik o'yinlar vositasida nazariy bilimlar oson egallanadi, o'quvchilarning bilim olishga qiziqishlari ortadi. Didaktik o'yinlar nafaqat boshlang'ich sinflarda, balki ta'limning keyingi bosqichlarida ham o'quvchilarning bilimga bo'lgan ishtiyoqlari rivojiga katta turtki bo'lishi mumkin. Ayniqsa qiyin o'zlashtiruvchi o'quvchilarning bilish imkoniyatlarini oshirishga bunday o'yinlar samarali ta'sir ko'rsatadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, boshlang'ich sinflar uchun yaratilayotgan o'quv qo'llanmalarida shu sohaga oid materiallar tanqisligi ko'zga tashlanib turadi.

Noan'anaviy metodlardan "Aqliy hujum", "Kichik guruhlarda ishlash", "Davra suhbat", "Rolli o'yinlar", "Zig-zag", "Charxpalak", "Muammoli vaziyat", "Bahsmunozara", "Pinbord", "3x4", "Konvert", "FSMU", "Assesment", "Sinkveyn", "Diqqat", "Venn diagrammasi", "Baliq ovi", "Raketa", "To'g'ri-noto'g'ri", "Mo'jizalar maydoni", "So'zdan so'z yasash", "Ustunchalar", "Kim g'olib", "Muhokama", "Suhbat", "Amaliy mashg'ulot", "T-chizmasi", "BBS", "Rasmi damino", "Nima o'zgardi". "Aksincha" va hokazo.

Keling noan'anaviy metodlarning samaradorligini ko'rib chiqaylik:

1. O'quvchilarning mashg'ulotlardagi faollashuvi va bundan kelib chiqib bilim olish samarasining oshishi;
2. O'quvchilar o'qituvchi bilan bevosita muloqotga kirishi, hamkorlik yuzaga kelishi;
3. O'qituvchining nazorati barcha o'quvchilar uchun motivatsiya-ishtiyuqni vujudga keltiradi.
4. O'qituvchi va o'quvchi vaqtdan to'g'ri va unumli foydalanishi;
5. Yangi mavuzning keng hajmda o'rganilishi va o'zlashtirilish samaradorligi oshishi;
6. O'quvchilarning bilim darajalarini har tomonlama va majmualik tekshirib ko'rishi imkon mavjudligi;
7. O'quvchilarning faolligi oshib, ilmga bo'lgan e'tibori va qiziqishi kuchayadi.
8. Topshiriqlarni amaliy tekshirib ko'rish va vazifani bajarishga ijodiy yondashishi;
9. O'quvchining o'zini qiziqtirgan savollarga javob topishga harakat qilishi va ijodiy izlanishi;
10. Guruhlarda jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini shakllanishi;
11. Bilimi past o'quvchilarning bilimdan o'quvchilarga ergashib, aralashib ketishi;
12. O'quvchilar vaziyatni tezda baholay olish va hozirjavob bo'lish ko'nikmalariga ega bo'lib borishi;
13. Mustaqil fikr olay oladigan o'quvchilarning ko'payib bopirishi;
14. O'quvchida o'zgaralar fikrini tinglay olish ko'nikmasini hosil bo'lishi;
15. O'quvchi o'z fikrini himoya qilishi;
16. Bildirilgan fikrlarni umumlashtirish ko'nikmasi paydao bo'lishi;

Bundan tashqari quyida bir nechta harakatli mashqlarni misol qilib keltirishimiz mumkinki, natijada darslar ancha qiziqarli va noan'anaviy bo'ladi.

Hozirgi davrda pedagogik texnologiyalar asosida ta'limni tashkil etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Pedagogik texnologiya o'quvchilar qobiliyati, imkoniyati va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ta'lim shakllarini amalga oshirish uchun ko'zlangan natijaga erishishda eng qulay yo'l va usullarni tanlash va ishlab chiqish mahorati ekan, u haqiqatan ham ta'lim jarayoni unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyuq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Shuning uchun ham ta'lim ishiga texnologik yondashuv katta ahamiyatga ega.

Ta'lim ishiga texnologik yondashuv:

— ta'lim jarayoni maqsadini aniq belgilashni;

— o'qish-o'qitish jarayonini uzviy bog'liq bosqichlar, fazalar, amallarga ajratish, bo'lishni;

— ta'lim jarayonida mo'ljallangan natijaga erishish uchun bajariladigan harakatlarni muvofiqlashtirish, ketma-ket, bosqichma-bosqich amalga oshirishni;

— loyihalashtirilgan ishlar, amallarning barcha-sini bir xil bajarishni nazarda tutadi.

Pedagogik texnologiyada ta'lim jarayonining maqsadini belgilash muhim bo'lib, u rejalashtirilgan natijalarni kafolatlashi lozim. Shuning uchun ham o'qituvchilar maqsadni aniq belgilashga alohida e'tibor qaratishlari zarur. Har bir o'qituvchi avvalo o'zi o'qitadigan o'quv predmeti va har bir o'qitadigan darsi maqsadini aniq belgilashi kerak.

Shuni ta'kidlash lozimki, belgilangan maqsad asosida o'tkaziladigan didaktik jarayonning aniq loyihasi ishlab chiqilsa, uni amalga oshirish osonlashadi.

Didaktik jarayonning samarali o'tishida motivlar muhim o'rin tutadi. Chunki qiziqib, aniq maqsad asosida egallangan bilimlargina samarali bo'ladi. Motiv kishini biror ish-harakatni bajarishga undovchi da'vat, turtki. Shunday ekan, muallimlar bolada o'qish

motivlarini hosil qilishga intilishlari va uni o‘stirishlari kerak. Motivlar o‘quvchilarni bilim, ko‘nikma va malakalarni oson egallashlariga yordam beradi. Motiv bolada bilim olishga ishtiyoq va qiziqish uyg‘otadi. O‘qituvchilar bundan mohirlik bilan foydalanishlari va o‘quvchilarga beriladigan mustaqil ishlar tizimini ishlab chiqishlari foydadan xoli bo‘lmaydi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining har bir darsni tashkil etish uchun turli didaktik o‘yinlardan foydalanishlari yaxshi samara beradi.

Pedagogik faoliyatda o‘qituvchining mahorati uning samarali natijalarga erishishi, pedagogik faoliyatining yuqori darajasi sifatida tushuniladi. O‘qituvchining pedagogik mahorati - bu ta‘lim-tarbiya san‘atining yuqori va doimiy ravishda rivojlanib, takomillashib boradigan san‘atidir. Mahorat turli xil pedagogik masalalarni samarali echishda, shuningdek, o‘quv-tarbiyaviy ishlarni talab darajasida tashkil etish jarayonida namoyon buladi. Lekin bu mahoratning mazmuni ushbu faoliyatlarni vujudga keltiradigan o‘qituvchining shaxsiy sifatleri bilan bog‘liq. Demak, pedagogik mahoratning mazmunini chuqur anglash uchun dastavval pedagogik faoliyat nima ekanligini tushunib olmoq‘imiz lozim.

Adabiyotlar:

1. Norbayeva Boshlang‘ich ta‘lim tizimida o‘quvchilarning e‘tiborini jamlash va yangi metodlar bilan ularni darslarga bo‘lgan ishtiyoqini yukshaltirish texnologiyalari // Science and Education. 2021. №6.
2. Boshlang‘ich ta‘limni o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanma. Toshkent-2018.
3. М.Э.Жумаев, М.Ю.Юлдашева, Б.У.Мингбаева, Г.А.Маматова “Бошланғич таълимни ўқитишда замонавий ёндашувлар ва инновациялар” методик услубий қўлланма – Т.: 2017 й
4. Ibragimov R. Boshlang‘ich maktab o‘quvchilarida bilish, faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari. Diss. T., 2001-yil.